

MILLIY G'OYA VA MA'NAVIYATNI RIVOJLANTIRISHDA DAVLAT SIYOSATINING O'RNI

Yoqubova Maftuna Po'lat qizi

UrDPI Milliy g'oya, ma'naviyat asoslari va huquq ta'limi yo'nalishi 4-bosqich talabasi
<https://doi.org/10.5281/zenodo.19213247>

Annotatsiya: Ushbu maqolada milliy g'oya va ma'naviy qadriyatlarni rivojlantirishda davlat siyosatining o'rni, xalqaro va milliy mexanizmlar va hozirgi kunda yurtimizda bu sohada amalga oshirilayotgan islohatlar to'g'risida ma'lumot berilgan. Shuningdek, ma'naviy-ma'rifiy ishlarni takomillashtirishda normativ-huquqiy hujjatlarning ahamiyati, ularning amaliyotdagi roli hamda yoshlar tarbiyasiga ta'siri tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: ma'naviyat, ma'naviy-ma'rifiy ishlar, huquqiy asoslar, davlat siyosati, milliy qadriyatlar, yoshlar tarbiyasi, ta'lim tizimi, normativ-huquqiy hujjatlar, ma'naviy rivojlanish, jamiyat taraqqiyoti.

Abstract: This article provides information about the role of state policy in developing the national idea and spiritual values, as well as international and national mechanisms, and the reforms currently being implemented in our country in this field. In addition, the importance of normative legal documents in improving spiritual and educational activities, their role in practice, and their impact on the upbringing of youth are analyzed.

Keywords: spirituality, spiritual and educational activities, legal foundations, state policy, national values, youth upbringing, education system, normative legal documents, spiritual development, social development.

Аннотация: В данной статье представлена информация о роли государственной политики в развитии национальной идеи и духовных ценностей, а также о международных и национальных механизмах и реформах, реализуемых в настоящее время в нашей стране в этой сфере. Кроме того, анализируется значение нормативно-правовых документов в совершенствовании духовно-просветительской деятельности, их роль на практике, а также их влияние на воспитание молодежи.

Ключевые слова: духовность, духовно-просветительская деятельность, правовые основы, государственная политика, национальные ценности, воспитание молодежи, система образования, нормативно-правовые документы, духовное развитие, развитие общества.

KIRISH

Bugungi kunda globalashuv jarayonlari jadallashib borayotgan bir davrda jamiyat taraqqiyotini ta'minlashda ma'naviyat omili muhim ahamiyat kasb etmoqda. Har qanday davlatning barqaror rivojlanishi, avvalo, uning fuqarolarining ma'naviy dunyosi, milliy qadriyatlari va ijtimoiy ong darajasi bilan chambarchas bog'liqdir. Shu sababli ma'naviyatni rivojlantirish, milliy g'oya va qadriyatlarni asrab-avaylash hamda yosh avlodni yuksak ma'naviyat ruhida tarbiyalash davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri hisoblanadi.

ASOSIY QISM

Ma'lumki, 2017-yil 28-iyulda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan **“Ma'naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligini oshirish va sohani rivojlantirishni yangi bosqichga ko'tarish to'g'risida”gi** 3160-sonli qaror qabul qilindi, bu qaror mamlakatda ma'naviy-ma'rifiy sohani yangicha tizimli asosda rivojlantirish uchun muhim huquqiy baza

yaratdi. Ushbu qarorda birinchi navbatda Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazi shakllantirilib, unda davlatning ma'naviyatni mustahkamlash sohasida amalga oshiradigan siyosat yo'nalishlari markazlashtirilgan. Qaror bilan ilgari alohida faoliyat yuritgan Respublika Ma'naviyat targ'ibot markazi va Milliy g'oya va mafkura ilmiy-amaliy markazi birlashtirilib, ularning negizida yangi tuzilma - Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazi tashkil etildi. Qarorda quyidagi asosiy vazifalar belgilangan:

- ma'naviy-ma'rifiy ishlarning mazmun-muhitini tubdan yaxshilash, ularning ko'lamini va miqyosini kengaytirish;
- soha xodimlarining bilim va malakasini oshirish, ularning mehnatiga haq to'lash tizimini tartibga solish;
- ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar hamda qabul qilinayotgan normativ huquqiy hujjatlarni aholining keng qatlamlariga yetkazish uchun targ'ibot ishlarini samarali tashkil etish;
- yoshlarda milliy g'oya va madaniy qadriyatlarga sodiqlik, Vatan taqdiri uchun mas'uliyat hissini shakllantirish, yot mafkuralarga qarshi mafkuraviy immunitetni oshirish;
- terrorizm, diniy ekstremizm, narkobiznes va boshqa salbiy illarga qarshi g'oyaviy kurashni kuchaytirish;
- oila, mahalla, ta'lim muassasalari orqali kompleks ma'naviy tarbiya ishlarini olib borish;
- millatlararo totuvlik, dinlararo bag'rikenglik va milliy an'analarni asrab-avaylashni ta'minlash.

2017-yil 7-fevralda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan imzolangan PF-4947-sonli Farmon bilan tasdiqlangan 2017–2021-yillarda O'zbekistonni rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha **Harakatlar strategiyasi** davlat siyosatida ma'naviyat va milliy g'oyaning barqaror shakllanishi uchun huquqiy asos yaratishda muhim rol o'ynadi. Bu strategiya mamlakat iqtisodiyoti, ijtimoiy hayoti va davlat boshqaruvi tizimini chuqur isloh etishni ko'zda tutuvchi kompleks hujjatlardan biri sifatida qabul qilingan.

Strategiyada "Xalq bilan muloqot va inson manfaatlari yili" deb e'lon qilingan 2017-yil bu yo'nalishda aniq strategik qadamlarga asos bo'ldi. Bu tamoyil davlat siyosatining markazida fuqarolar bilan to'g'ridan-to'g'ri muloqot, ularning huquqlari va qonuniy manfaatlarini ta'minlash, shuningdek, ijtimoiy-ma'naviy muhitni mustahkamlashga qaratilgan tizimli yondashuvni belgiladi. 2017–2021 yillar davomida Harakatlar strategiyasining ijrosi bo'yicha 30 dan ortiq qonun va 900 dan ortiq normativ-huquqiy hujjatlar qabul qilindi.

Keyingi bosqichda, 2022-yil 28-yanvarda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan imzolangan PF-60-sonli "**O'zbekiston Respublikasi Taraqqiyot strategiyasi**" qabul qilindi. Bu strategiya o'z ichiga 2022–2026-yillar uchun iqtisodiy, ijtimoiy va ma'naviy rivojlanish yo'nalishlarini olgan bo'lib, Harakatlar strategiyasining mantiqiy davomi sifatida qabul qilindi. Taraqqiyot strategiyasida ma'naviyat va milliy g'oyani rivojlantirish ustuvor vazifa sifatida ko'rsatildi. **Strategiyada quyidagilar belgilandi:**

1. Ezgulik va insonparvarlik tamoyiliga asoslangan "Harakatlar strategiyasidan — Taraqqiyot strategiyasi sari" g'oyasini keng targ'ib etish orqali jamiyatda sog'lom dunyoqarash va bunyodkorlikni umummilliy harakatga aylantirish.
2. Aholiga axborot-kutubxona xizmatini ko'rsatishni yanada rivojlantirish, kitobxonlikni keng ommalashtirish hamda "Kitobsevar millat" umummilliy g'oyasini ro'yobga chiqarish.
3. Buyuk ajdodlarimizning boy ilmiy merosini chuqur o'rganish va keng targ'ib etish.
4. Jamiyatda millatlararo totuvlik va dinlararo bag'rikenglik muhitini mustahkamlash.

5. Madaniyat va san'at sohalarini yanada rivojlantirish, madaniyat muassasalari va obyektlarining moddiy-texnika bazasini yaxshilash.
6. O'zbekiston tarixini o'rganish va targ'ib qilishni yanada rivojlantirish.
7. Milliy kino san'atini rivojlantirish.

2022–2026-yillarga mo'ljallangan Taraqqiyot strategiyasi ramziy tarzda ifodalovchi “Yangi O'zbekiston – Uchinchi Renessans sari” shiorida o'z ifodasini topadi. “Uchinchi Renessans” atamasi milliy g'oya va ma'naviyatni rivojlantirishni nafaqat iqtisodiy va siyosiy islohotlar bilan, balki madaniy, ilmiy va ma'naviy yangilanish orqali amalga oshirishni bildiradi. Shu shior davlat siyosatida milliy qadriyatlarni targ'ib qilish, yosh avlodni ma'naviy barkamol etish va jamiyatda ijtimoiy barqarorlikni mustahkamlash kabi vazifalarni markaziy o'ringa qo'yadi. Ushbu shior madaniy, ilmiy va ma'naviy yangilanishni, jamiyatning ruhiy va intellektual taraqqiyotini ta'minlashni ko'zda tutadi. Shu bilan birga, u yoshlarni milliy qadriyatlar, ma'naviy-ma'rifiy ishlar va jamiyat rivojiga faol jalb qilishning asosiy tamoyili sifatida xizmat qiladi. Masalan, davlat tomonidan tashkil etilgan “Yoshlar markazlari”, ilmiy-amaliy loyihalar, ma'naviy-ma'rifiy dasturlar va ko'ngilli tashabbuslar orqali yoshlar jamiyatning ma'naviy rivojiga faol hissa qo'shmoqda. Biz orzu qilgan va qat'iy intilayotgan Yangi O'zbekiston g'oya-i, avvalo, xalqimiz oz milliy taraqqiyotining yangi davriga qadam o'yganini, jahon hamjamiyatidan munosib orin egallayotgani, bu orada oldimizda ko'plab yangi imkoniyatlar paydo bo'layotganini nglatadigan tushunchadir.

Yangi O'zbekiston - Vatanimiz mustaqilligini yanada mus-ahkamlash, erkinlik va ozodlikning yangi davri, bunyodkorlik va arovonlik yolineing yugori bosqichidir.

XULOSA

Maqolada milliy g'oya va ma'naviyatni rivojlantirishda davlat siyosatining o'rni tahlil qilindi. O'zbekistonning strategik yondashuvlari – Harakatlar va Taraqqiyot strategiyalari – bu jarayonda konseptual yo'nalish sifatida xizmat qiladi, ularning amaliyoti “Yangi O'zbekiston – Uchinchi Renessans sari” shiori bilan uyg'unlashadi. Shu shior orqali mamlakatning ma'naviy va madaniy yangilanishi, yoshlar faoliyati va jamiyatning ma'naviy rivojlanishi birlashtiriladi. Umuman olganda, milliy g'oya va ma'naviyatni rivojlantirishda davlat siyosati nafaqat qadriyatlarni targ'ib qilish, balki jamiyatning ruhiy, madaniy va ijtimoiy rivojlanishini ta'minlovchi tizimli mexanizm sifatida o'z ahamiyatini saqlab qoladi.

Adabiyotlar, References, Литературы:

1. Karimov I.A. “Yuksak ma'naviyat - yengilmas kuch”
2. Shavkat Mirziyoyev “Yangi O'zbekiston Taraqqiyot strategiyasi”
3. “Mustaqillik davrida milliy o'zlikni shakllantirish siyosatining tarixiy asoslari va ijtimoiy ta'siri” maqolasi
4. “Ma'naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligini oshirish va sohani rivojlantirishni yangi bosqichga ko'tarish to'g'risida”gi 3160-sonli qaror
5. <https://oyina.uz//>
6. www.lex.uz